



JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARNING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI

Karimov Islom Umidullo o'g'li

IIV Surxondaryo akademik litseyi Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar – bu jamiyat hayotining xavfsiz sharoitlari, aholi sog'lig'i, transport harakati va undan xavfsiz foydalanish xavfsizligi va axborotlashtirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida ifodalangan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof qilmishlardir. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash kabi muhim ijtimoiy qimmatliklarni har tomonlama jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, muhofaza qilish zarurligiga asoslangan.*

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar – shaxs, jamoat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti shaxs, jamoat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, diniy mazmundagi materiallar (JK 2443 -m.), pirotexnika buyumlari (JK 2501 -m.), kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar (JK 251-m.) va boshqalar. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 242, 244–248, 2501–252, 2551 -m.) yoki harakatsizlikda (JK 2571 , 2591 -m.) ifodalanadi. Ayrim turdagi jinoyatlar ham harakat, ham harakatsizlikda (JK 243, 2481–250, 253– 255, 2552–257, 258, 259-m.) sodir etilishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko'ra formal (JK 242–2481 , 2501–252, 2551–255 2 , 2571 , 2591 -m.) yoki moddiy (JK 249, 250, 253–255, 256, 257, 258, 259-m.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko'rsatilgan.



Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd (JK 242–2481 , 2501–252, 2551 , 2552 , 2571 , 2591 -m.) va ham qasd, ham ehtiyotsizlik (JK 249, 250, 253–255, 256, 257, 258, 259-m.) shaklida ifodalanadi.

Ushbu turdagi jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat sodir etishning motivi va maqsadi zaruriy belgi sifatida nazarda tutilgan. Masalan, tarqatish yoxud namoyish etish maqsadi (JK 2441 -m.), biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan oʻzini tiyib turishni talab qilish maqsadi (JK 245-m.). Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning subyekti 16 yoshga toʻlgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs boʻlishi mumkin.

Ayrim jinoyatlar uchun (JK 247, 252-m.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan. Baʼzi jinoyatlarning subyektlari maxsus belgilarga ega. Masalan, texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalarga rioya etilishi uchun masʼul boʻlgan shaxs (JK 257-m.). Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning turlari: Jinoiy uyushma tashkil etish (JK 242-m.)

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (JK 243-m.) Ommaviy tartibsizliklar (JK 244-m.)

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 2441 -m.)

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK 244 2 -m.) Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 2443 -m.)

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, oʻtkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish (JK 2444 -m.) Karantinli va inson uchun xavfli boʻlgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan maʼlumotlarni tarqatish (JK 2445 -m.)

Yolgʻon axborot tarqatish (JK 2446 -m.) Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JK 245-m.)

Kontrabanda (JK 246-m.)



O'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-m.) O'qotar qurolning, o'q-dorilarning, o'qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi (JK 248-m.) 139 Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish (JK 2481 -m.) Qurolni va uning o'q-dorilarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish (JK 249-m.) Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 250-m.)

Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi (JK 2501 -m.) Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 251-m.) Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (JK 2511 -m.)

Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 252-m.) Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 253-m.) Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish (JK 254-m.) Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 255-m.)

Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (JK 2551 -m.)

Neft quvurlarini, gaz quvurlarini, neft va gaz mahsulotlari quvurlarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 2552 -m.) Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (JK 256-m.)

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (JK 257-m.) Sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (JK 2571 -m.)

Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 258- m.) Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 259-m.) O'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik (JK 2591 -m.).



Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti transport harakati xavfsizligi va undan foydalanish xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. 140 Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, temir yo'lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemasi (JK 264-m.), transport vositasi (JK 267-m.) va boshqalar.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 2601 , 263–264, 267-m.) yoki ham harakat, ham harakatsizlikda (JK 260, 261, 262, 265, 266, 268, 269-m.) sodir etilishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko'ra formal (JK 264, 265, 267-m.) yoki moddiy (JK 260–2631 , 266, 268, 269-m.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko'rsatilgan.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd (JK 264, 265, 267-m.) va ehtiyotsizlik (JK 260, 261, 266, 268-m.) shaklida ifodalanadi.

Ayrim jinoyatlar aybning ham qasd, ham ehtiyotsizlik (JK 2601 , 262–2631 , 269-m.) shaklida sodir etilishi mumkin. Mazkur jinoyatlarning subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishdan iborat jinoyatlar – giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan muomala qilish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Mazkur jinoyatlarning turdosh obyekti giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan muomala qilish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarda jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlar (JK 270-m.), giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop



moddalar (JK 271–276-m.) va boshqalar. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishdan iborat jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK 270–274, 276-m.) orqali sodir etiladi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar – jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlash hamda munosib xulq-atvorda bo'lishga asoslangan jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning turdosh obyekti jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlash hamda munosib xulq-atvorda bo'lishga asoslangan jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar obyektiv tomondan faol harakatlar orqali sodir etiladi. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko'ra formal tarkibli jinoyatlar sifatida ko'rsatilgan. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd shaklida ifodalanadi. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar uchun (JK 277-m. 2–3-q.) 14 yoshdan javobgarlik belgilangan.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning turlari: Bezorilik (JK 277-m.) Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 274-m.).

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar – axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklaridan huquqiy va xavfsiz foydalanishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning turdosh obyekti axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklaridan huquqiy va xavfsiz foydalanishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat predmeti qilmishga huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, maxsus dasturiy yoki apparat vositalari (JK 2783 -m.), kompyuter uskunasi (JK 2785 -m.) va boshqalar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat (JK



2782–2787 -m.) yoki ham harakat, ham harakatsizlikda (JK 2781 -m.) sodir etilishi mumkin.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatlar qonunda tuzilishiga ko‘ra formal (JK 2783 , 2786 , 2787 -m.) yoki moddiy (JK 2781 , 2782 , 2784 , 2785 -m.) tarkibli jinoyatlar sifatida ko‘rsatilgan. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomoni aybning qasd (JK 2782–2787 -m.) va ham qasd, ham ehtiyotsizlik (JK 2781 -m.) shaklida ifodalanadi. Ushbu turdagi jinoyatlarning ayrimlarida jinoyat sodir etishning motivi va maqsadi zaruriy belgi sifatida nazarda tutilgan. Masalan, kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilib yuborish, to‘sis qo‘yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni qo‘lga kiritish maqsadi (JK 2786 -m.) va boshqalar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning subyekti 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Jinoiy uyushmani tuzish deyilganda, ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlarining yagona rahbarlik ostida birlashishi, uyushmaning jinoiy faoliyati rejasi tuzilishi, vazifalarning uyushgan guruhlar yoki ularning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlanishi, muayyan jinoyat tayyorlanib amalga oshirilishini va h.k.larni tushunish zarur.

Jinoiy uyushmaning mavjud bo‘lishi va ishlab turishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyat jinoiy uyushma a‘zolarini moddiy ta‘minlashda, jinoiy uyushmani har qanday yo‘l bilan qo‘llab-quvvatlashda, masalan, transport vositalarini, qalbaki hujjatlarni berish, texnika vositalari bilan ta‘minlash, jinoiy faoliyat natijasida qo‘lga kiritilgan pullarni oshkoralashtirish va h.k.larda ifodalanishi mumkin.

Jinoiy uyushma yoki uning bo‘linmalariga rahbarlik qilish jinoiy faoliyat rejalarini ishlab chiqish, uyushma a‘zolari orasida vazifalarning taqsimlanishi, jinoiy tajovuz obyektlarining tanlanishi, uyushmaning boshqa a‘zolariga ko‘rsatma va topshiriqlar berishda ifodalanadi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar har qanday demokratik jamiyatda fuqarolarning tinch hayotini, ijtimoiy barqarorlikni, qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlashga qaratilgan huquqiy normalarning buzilishi bilan bog‘liq



bo'lib, ularning sodir etilishi bevosita jamiyatdagi umumiy xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jinoyatlar odatda ommaviy tartibsizliklar, ommaviy yig'ilishlar qoidalarini buzish, qurol yoki portlovchi moddalarni noqonuniy saqlash, transport xavfsizligiga tahdid solish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi, diniy-ekstremistik materiallarni tarqatish kabi shakllarda namoyon bo'ladi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar o'z xususiyatiga ko'ra ommaviylik, xavf tug'diruvchi vositalardan foydalanish, odamlar hayoti yoki sog'lig'iga tahdid solish, keng jamoatchilik e'tiborini tortuvchi xatti-harakatlar bilan ajralib turadi. Bu turdagi jinoyatlar ko'pincha oldini olish choralari yetarli bo'lmaganda yoki profilaktik nazorat sust bo'lgan hollarda sodir etiladi.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, siyosiy vaziyat, ommaviy axborot vositalarining ta'siri, diniy va mafkuraviy yo'nalishdagi tashviqotlar ham ushbu jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bu turdagi jinoyatlar alohida boblarda tartibga solingan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: ommaviy tartibsizliklarni uyushtirish, qurol-yarog' yoki portlovchi moddalarni noqonuniy muomalada saqlash, noqonuniy diniy materiallarni tayyorlash yoki tarqatish, giyohvandlik vositalarini tayyorlash va tarqatish qoidalarini buzish, transport vositalarini g'ayriqonuniy boshqarish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish va boshqalar.

Mazkur mavzuning o'rganilishi talabalarga jamoat xavfsizligi va ijtimoiy tartibni ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni chuqur anglashga, jamoaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi xatti-harakatlarni huquqiy jihatdan baholashga va jinoyat tarkibini aniqlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mavzuning dolzarbligi zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga huquqiy yondashuvlarni o'rganish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va huquqiy javobgarlik belgilash bo'yicha samarali



tizimning mavjudligi davlat suvereniteti, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, ijtimoiy barqarorlik hamda tinchlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida huquqshunos kadrlarning puxta bilimga, huquqiy tahlil ko'nikmasiga va amaliy fikrlash salohiyatiga ega bo'lishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023 – 184b
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – asosiy normativ hujjat.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi – jinoyat ishlari yuritilishi tartibini belgilaydi.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – jinoyat huquqining asosiy prinsiplari shu yerda belgilangan.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenum qarorlari
7. M. Rustambayev. "Jinoyat huquqi (Maxsus qism)" – jinoyat turlarining tahlili.